

NAVBATDAGI HOKIM VA YOSHLAR UCHRASHUVI O'TKAZILDI



NAVBATDAGI HOKIM VA YOSHLAR UCHRASHUVI O'TKAZILDI

Bugun, 9-iyun kuni 26-sonli umumiy o'rta ta'lim mакtabida Termiz shahar hokimi Isroil Xudoyberdiev 1-sektor hududidagi mahalla yoshlari bilan uchrashuv o'tkazdi.

Uchrashuvda yoshlarning muammo va takliflari tinglanib, ularning moddiy yordam, kontrakt to'lovi, ishga joylashtirish, subsidiya asosida kredit olish va boshqa masalalardagi murojaatlarining aksariyati joyida ijobiy yechim topdi.

Shuningdek, ikki nafar yoshlar tomonidan "Bobur" bog'ida "Yoshlar" bog'ini tashkil etish yuzasidan landshaft-dizayn hamda Kibersportni rivojlantirish bo'yicha loyiha taqdimotlari namoyish etildi. Shahar hokimi tomonidan yoshlarning ayrim muammo va takliflarini bajarilishi yuzasidan chora-tadbirlar asosida muddatlar belgilanib, mutasaddi rahbarlarga topshiriqlar berildi.

Jarayon davomida yoshlarga O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 7 iyundagi "Yoshlar muammolarini o'rganish va hal etish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 312-sonli qarorining mazmun-mohiyati tushuntirildi.







